KORPORATIV HUQUQDA AXBOROTLARNI OSHKOR QILISH MAJBURIYATINING HUQUQIY HOLATI

Berdiyeva Munisa Shuhrat qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Korporativ huquq va boshqaruv yo‘nalishi
Magistratura bosqichi talabasi
berdiyevamunisa16@gmail.com
Telefon raqam:+998(93)-080-36-04
https://doi.org/10.5281/zenodo.24274463

Annotatsiya. Maqolada korporativ huquqda axborotni ochiq e’lon qilish majburiyatining huquqiy tabiati, uning subyektlari va shaffoflikni ta’minlaydigan zamonaviy vositalar tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar. korporativ huquq, axborotni oshkor etish burchi, aksiyadorlik jamiyati, mas’uliyati cheklangan jamiyat, emitent, muhim faktlar, affillangan shaxslar, fidutsiar majburiyat, Korporativ axborotning yagona portali.

Аннотация. В статье анализируются правовая природа обязанности по публичному раскрытию информации в корпоративном праве, её субъекты и современные инструменты, обеспечивающие прозрачность.
Ключевые слова. корпоративное право, обязанность раскрытия информации, акционерное общество, общество с ограниченной ответственностью, эмитент, существенные факты, аффилированные лица, фидуциарная обязанность, Единый портал корпоративной информации.

Abstract. The article analyzes the legal nature of the obligation to publicly disclose information in corporate law, its subjects, and the modern tools that ensure transparency.
Keywords. corporate law, duty of disclosure, joint-stock company, limited liability company, issuer, material facts, affiliated persons, fiduciary duty, Unified Portal of Corporate Information.

Globallashuv sharoitida korporativ aloqalar barqarorligi bevosita axborot shaffofligiga tayanadi. Amaliyotda kompaniyaning asl holati va mavjud xatarlardan faqat yirik mulkdorlar hamda boshqaruv organlari to'liq xabardor bo'ladi. Kichik investor va kreditorlar esa ko'pincha yetarli ma'lumotga ega bo'lmaydi. Shu bois, axborotni ochiq e'lon qilish — oddiy rasmiyatchilik emas, balki barcha ishtirokchilarning huquqlarini kafolatlovchi muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi.

O‘zbekistonda xalqaro korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish maqsadida muhim huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2025-yilda tasdiqlangan O‘RQ-1025 hamda O‘RQ-1057-sonli qonunlar yordamida aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etishning yangi qoidalari o'rnatildi. Bu boradagi eng jiddiy qadamlardan biri sifatida 2026-yil 21-aprelda yangi tahrirdagi “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishini aytish mumkin. Qonunchilikdagi bunday tub o‘zgarishlar ushbu huquqiy burch va majburiyatlarni chuqur ilmiy hamda qiyosiy jihatdan tahlil qilishni talab etadi.

Tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tarkibiy va tarixiy-huquqiy usullardan foydalanildi. O‘RQ-1137, O‘RQ-370 va O‘RQ-387-son qonunlar normalari o‘rganilib, turli shakldagi tijorat tashkilotlarida e’lon qilinadigan axborot hajmi, muddati va shakllari taqqoslandi hamda G20/OECD Korporativ boshqaruv tamoyillariga mosligi baholandi. Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra, axborotni oshkor etish har bir qiziquvchi shaxsga axborotni maqsadidan qat’i nazar olish imkonini kafolatlashni anglatadi.

Yangi qonun yopiq turdagi MChJlarda ochiqlikni yangi bosqichga ko‘tardi: ustavda hujjatlarni saqlash va axborot berish tartibi belgilanadi, 54-moddada sanalgan hujjatlar talab bo‘yicha taqdim etiladi, jamiyat siri esa oshkor etmaslik haqidagi shartnoma asosida beriladi; umumiy yig‘ilish haqida

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

kamida 30 kun oldin xabar yuboriladi, bayonnoma 3 kun ichida imzolanib, ko‘chirma nusxa 5 ish kuni ichida jo‘natiladi; obligatsiya chiqarish haqidagi qaror ikki ish kuni ichida muhim fakt sifatida portal va veb-saytda e’lon qilinadi.

Eng qat’iy rejim AJlarga belgilangan. O‘RQ-387-son qonunning 44-moddasiga ko‘ra, emitent axborotni emissiya risolasida, choraklik va yillik hisobotda hamda muhim faktlar haqidagi xabarlarda (2 ish kuni, affillangan shaxslar bilan bitimlarda 72 soat) oshkor etadi. AJ yillik hisobotni XMHS bo‘yicha tuzib, ISA bo‘yicha auditdan o‘tkazadi va yig‘ilishdan kamida ikki hafta oldin e’lon qiladi. 2025-yil 17-apreldagi O‘RQ-1057-son qonun bilan: openinfo.uz majburiy axborot e’lon qilishning markaziy platformasi bo‘ldi; listingsiz xususiy AJlar uchun veb-sayt ixtiyoriy bo‘ldi; yig‘ilish haqidagi xabar 21–30 kun oldin e’lon qilinadigan bo‘ldi; dividend haqidagi qaror 15 kun ichida aksiyadorlarga SMS yoki elektron pochta orqali yetkaziladi; davlat ulushi 50 foizdan ortiq yoki listingdagi AJlar mustaqil a’zolar reyestrini yuritadi. Axborot burchi jamiyat, boshqaruv a’zolari, yirik ishtirokchilar va affillangan shaxsning o‘ziga ham yuklangan. AJ bunday bitimni 72 soat ichida portalda e’lon qiladi; ma’lumotlar yillik hisobotga kiritiladi. Qimmatli qog‘ozlarning 35 foiz va undan ko‘pini yoki AJ ustav kapitalining 20 foiz va undan ko‘pini olgan shaxs buni oshkor etadi (47-modda). Bank aksiyalarining 5 foizidan ortig‘i uchun Markaziy bank xabardor qilinadi, 20 foizidan ortig‘i uchun oldindan rozilik olinadi. 50 foiz va undan ko‘p ulush olgan shaxs AJda 30 kun, MChJda 15 kun ichida kichik ulushli ishtirokchilarga sotib olish taklifini beradi. AJda birlamchi buxgalteriya hujjatlari, ijroiya organi bayonnomalari, direktor buyruqlari va reyestr ochiq hujjatlar doirasidan chiqarilgan. Biroq affillangan shaxs bilan bitim bo‘yicha nizoda ishtirokchiga tegishli hujjatlar 3 ish kuni ichida beriladi. Fidutsiar majburiyat maxfiy ma’lumotni oshkor etmaslik va biznes imkoniyatidan shaxsiy manfaat ko‘rmaslikni o‘z ichiga oladi; insayder axborotdan foydalanish va bozor manipulyatsiyasi taqiqlanadi.

Axborotni oshkor etish burchini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik ko‘p bosqichli javobgarlikka olib keladi.

Fuqarolik-huquqiy va subsidiar javobgarlik. AJ kuzatuv kengashi a’zosi, direktori, boshqaruv a’zosi va ishonchli boshqaruvchi yolg‘on yoki chalg‘ituvchi axborot berish, axborot berish tartibini buzish hamda fidutsiar burchlarni bajarmaslik tufayli jamiyatga yetkazilgan zarar uchun solidar javob beradi. Emitent va professional ishtirokchilar axborot bermaslik yoki noto‘g‘ri axborot berish oqibatida investor ko‘rgan zarar uchun mulkiy javobgar bo‘ladi. Affillangan shaxs o‘z affillanganligi haqida o‘z vaqtida xabar bermasa, jamiyatga yetkazilgan zararni qoplaydi. Ijro organi yirik yoki affillangan shaxs bilan bitim tuzish tartibini buzib zarar yetkazsa va jamiyat mol-mulki kreditorlar oldidagi qarzni qoplashga yetmasa, aybdor mansabdor shaxslar subsidiar javobgar bo‘ladi.

Nazorat va ma’muriy choralar. O‘RQ-1057-son qonunga ko‘ra, jamiyat bir yil ichida ikki marta yoki undan ko‘p axborot va hisobotlarni o‘z vaqtida e’lon qilmasa, vakolatli organ emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini buzilish bartaraf etilguncha to‘xtatib qo‘yadi va ijro organini almashtirish masalasini ko‘rib chiqish haqida majburiy ko‘rsatma berishi mumkin. Shuningdek, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 174-1-moddasiga binoan, korporativ axborotni e’lon qilish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga ma’muriy jarima solinadi.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston korporativ huquqida axborotni oshkor etish burchi deklarativ norma bo‘lib qolmay, aniq muddatlar, raqamli platformalar va qat’iy sanksiyalar bilan ta’minlangan amaliy mexanizmga aylandi. Ayniqsa, fidutsiar majburiyatlar, mustaqil a’zolar, affillangan shaxslar bilan bitimlar, obligatsiyalar bo‘yicha muhim faktlar va NDA instituti bo‘yicha shaffoflik andozalari yaqinlashtirildi. Qonunchilikni takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi. O‘RQ-370-son qonunning 104-moddasini O‘RQ-1137-son qonunning 54-moddasi to‘rtinchi qismi bilan muvofiqlashtirish: AJda ovoz beruvchi aksiyalarning kamida 5 foiziga ega aksiyadorlarga NDA asosida boshqaruv majlislari bayonnomalari va yirik xo‘jalik shartnomalari bilan sudgacha tanishish huquqini berish. Bu asossiz korporativ nizolar ko‘payishining oldini oladi.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

O‘RQ-370 (85-modda) va O‘RQ-1137 (55-modda)da affillangan shaxslar doirasi rasmiy mezonlar (20 foiz ulush, yaqin qarindoshlik) bilan cheklangan. openinfo.uz ni Davlat reyestri bilan integratsiya qilib, affillangan shaxslar zanjirini avtomatik aniqlaydigan “RegTech” algoritmini joriy etish va ofshor yurisdiksiyalar orqali bilvosita nazorat qiluvchi yakuniy benefisiarlarni oshkor etishni majburiy qilish. G20/OECD tamoyillariga muvofiq, birja kotirovkasidagi va davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘p bo‘lgan yirik korporatsiyalarning yillik hisobotlarida barqaror rivojlanish, ekologik va boshqaruv xatarlari haqidagi axborotni ko‘rsatishni O‘RQ-387-son qonunning 44-moddasiga kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2024 y., 03/24/918/0295-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.04.2024 y., 03/24/921/0297-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-apreldagi “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-1137-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-370-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘RQ-387-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
6. Raxmonqulov X.R., Gulyamov S.S. Korporativ huquq: Darslik. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022.
7. Gulyamov S.S., Rustambekov I.R. Zamonaviy korporativ boshqaruv va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishning dolzarb masalalari. Toshkent: TDYU, 2023.
8. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.